

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH
BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

MADREYMOV BERIK DJALGASBAYEVICH

**BORSA-KELMES BOTIG'I PALEOLITI ZAMONAVIY
TADQIQOTLARDA**
**(Esen-2 va Qoraquduq 1-3 toshga ishlov berish ustaxonalari
materiallari asosida)**

**07.00.06 – Arxeologiya
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Madreymov Berik Djalgasbayevich

Borsa-Kelmes botig'i paleoliti zamonaviy tadqiqotlarda (Esen-2 va Qoraquduq 1-3 toshga ishlov berish ustaxonalari materiallari asosida).....3

Мадреймов Берик Джалгасбаевич

Палеолит впадины Барса-Келмес в современных исследованиях (по материалам кремнеобрабатывающих мастерских Есен-2 и Каракудук 1-3).....27

Madreymov Berik Djalgasbayevich

Paleolithic of the Barsa-Kelmes depression in modern research (based on materials from the Esen-2 and Karakuduk 1-3 flint workshops).....51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

MADREYMOV BERIK DJALGASBAYEVICH

**BORSA-KELMES BOTIG'I PALEOLITI ZAMONAVIY
TADQIQOTLARDA
(Esen-2 va Qoraquduq 1-3 toshga ishlov berish ustaxonalari
materiallari asosida)**

**07.00.06 – Arxeologiya
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PHD/Tar965 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.archaeology.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sayfullayev Baxtiyor Qurbonovich
tarix fanlari doktori.

Rasmiy opponentlar:

Suleymanov Rustam Xamidovich
tarix fanlari doktori, professor

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA Xorazm Ma'mun akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Milliy arxeologiya markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/02.30.12.2019. Tar.45.01. raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «15» XII, soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy.) Tel.: (+99871) 262-64-62; e-mail: uzarchae@academy.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi kutubxonasi va Fanlar akademiyasi Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin (52 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy.) Tel.: (+99871) 262-74-58; e-mail: uzarchae@academy.uz. Faks: (99871) 262-34-41)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «1» dekabr kuni tarqatildi.
(2023 yil «1» dekabr dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



F. A. Maqsudov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d.

D. X. Murodova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n.

A. A. Anarbaev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon tarixining ajralmas qismi bo'lgan qadimgi tosh davri arxeologiyasini o'rganish orqali qadimiy moddiy madaniyatning o'ziga xosligi, migrasiya jarayonlari, antropogenez muammolari kabi masalalarini yoritishda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada qadimgi tosh davri ijtimoiy hayoti, o'sha davr ekologiyasi, tabiati va qadimiy iqlimi haqidagi muhim ma'lumotlarni qayta tiklash ishlarini amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda qadimgi tosh davrining ibtidoiy xo'jalik shakllari, paleoiqlimi, flora va faunasi, toshga ishlov berish texnikasini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar faol olib borilmoqda. Bu borada ibtidoiy aholining kelib chiqishi, qadimgi davrlardan boshlab odam ajdodlarini o'ziga jalb qilgan manzilgohlar, qadimiy madaniyatlar sintezi jarayonlariga dahldor muhim masalalarga oid tadqiqot yo'nalishlari dolzarb ahamiyatga ega bo'moqda.

Yangi O'zbekistonda tarix fani sohasi oldiga qo'yilgan vazifalar qatorida mamlakat tarixini jahon sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish, O'zbekistonning qadimda va bugungi kunda mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy-madaniy aloqalar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini yoritish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda¹. Bu borada O'zbekiston tosh davri tarixini o'rganishda Ustyurtning Borsa-Kelmas botig'idagi Esen-2 hamda Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonalarining madaniy-davriy xususiyatlari hamda kelib chiqishi masalasi katta ahamiyatga ega. Borsa-Kelmas botig'i yodgorliklari tosh industriyalarini saqlanish darajasi, texnika-tipologiyasi, morfologiyasi hamda ishlanish texnologiyalariga ko'ra zamonaviy usullar yordamida tadqiq qilish yodgorliklarning ob'ektiv madaniy-davriy xususiyatlarini, kelib chiqish ildizlarini va Markaziy Osiyo paleolit davri madaniyatlari tizimidagi o'rnini aniqlash va ularni o'rganilish vazifalari dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 oktyabrdagi "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5270-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 sentyabrdagi "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 792-son Qarorlarida shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni va 2018 yil 19 dekabrda "Moddiy-madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan yaxshilash to'g'risida" gi PQ-4068-son Qaror va Farmonlarida belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xalqimizning boy tarixi, moddiy va madaniy

¹ Мирзиёев Ш.М. "Бир макон, бир йўл" – манфаатларимиз муштарак. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг "Бир макон, бир йўл" халқаро форумда сўзлаган нутқи. Пекин, 14-15 май, 2017 йил // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2019. – Б. 407-411; Арипов Э. Один пояс – один путь: Какие инициативы выдвинул Президент Узбекистана? / <https://strategy.uz/index.php>

merosini ilmiy o'rganish, targ'ib qilish va boyitib borish kabi vazifalarni ma'lum darajada bajarishga xizmat qiladi ².

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. 1962 yilda M.R. Qosimov MDH olimlari orasida birinchilardan bo'lib, toshga ishlov berish ustaxonalariga bag'ishlangan ilmiy ishini yakuniga etkazdi. U «Кремнеобработывающие мастерские каменного века в Средней Азии» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Oradan 10 yil o'tgandan keyin, 1972 yilda M.R. Qosimovning «Кремнеобработывающие мастерские каменного века в Средней Азии» nomli monografiyasi chop etildi.

Biroq o'tgan asrning o'rtalarida toshga ishlov berish ustaxonalarini tadqiq qilish uslublari bugungi kun talabiga javob bermay qoldi. Ularni o'rganishda asosan arxaik belgilarga e'tibor berilardi. Zamonaviy o'rganish uslublari esa bunday tadqiqotlarda asosan industriyalardagi progressiv elementlarga urg'u berishni taqozo etadi. Ma'lumki, toshga ishlov berish ustaxonalaridan topiladigan buyumlarning asosiy qismi ishlab chiqarish chiqitlari hisoblanadi. Ushbu ustaxonalarda tosh qurollar yoki ularning tanovorlarini yasash uchun ibtidoiy ustalar ko'plab uchirindilarni chiqitga chiqarib yuborganlar va bu hamisha qo'pol, primitiv texnika yordamida amalga oshirilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu chiqitlarni arxaik ko'rinishi ustaxonalarning qadimiyligini belgilamaydi. O'tgan asrda o'rganilgan ustaxonalarni sanalashda asosan ana shu arxaik ko'rinishga e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, tayyor tosh qurollar bu yerlardan makonlarga olib ketilgan va faqat, ayrim hollarda, qandaydir sabablarga ko'ra tashlab ketilgan tayyor qurollar hamda toshlarni chaqmoqlash texnikasi bu yodgorliklarning sanasini belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin.

Ustaxonalardagi texnokomplekslarning madaniy xosliklari yetarlicha yoritib berilmagan. O'rta Osiyo tosh davri toshga ishlov berish ustaxonalarining klassifikatsiyasi M.R. Qosimov hamda L.Ya. Krijevskayalar tomonidan amalga oshirilgan edi ³. Ular toshga ishlov berish ustaxonalarini ikkita tipga ajratganlar:

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 октябрдаги “Туризм, маданий мерос ва музейшунослик соҳаларида малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПҚ-5270-сон қарори, <https://lex.uz/docs/5701949>; Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 сентябрдаги “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги 792-сон қарори, <https://lex.uz/docs/4524476>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепсиясини тасдиқлаш тўғрисидаги”ги ПФ-6097-сон фармони, <https://lex.uz/docs/5073447>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги “Моддий-маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан яхшилаш тўғрисида” ги ПҚ-4068-сон қарори, <https://lex.uz/docs/4113465#4114117>. [Электрон ресурс]. www.lex.uz.

³ Касымов М.Р., Крижевская Л.Я. О классификации кремнеобработывающих мастерских //СА, №1. М. 1969. С. 265-268.

makon-ustaxonalar va tom ma'nodagi ustaxonalar. O'z navbatida makon-ustaxonalar ham ikkita guruhga ajratilgan:

Birinchi guruh makon-ustaxonalarga tosh konlarining bevosita yaqinida joylashgan topilmajoylar kiradi. Bunday ustaxonalar aholisining mashg'uloti asosan, xomashyoni qo'lga kiritish, toshlarga birlamchi va qisman ikkilamchi ishlov berishdan iborat bo'lgan.

Ikkinchi guruh makon-ustaxonalar birinchisidan xomashyo konlaridan olis masofada joylashganligi bilan ajralib turadi. Bunday ustaxonalarning aholisi xomashyoni tashqaridan makonlariga keltirganlar va bu yerda unga to'liq ishlov berganlar.

Har ikkala guruh makon-ustaxonalarning ham xarakterli belgisi ularda birlamchi ishlov berilgan toshlar bilan bir qatorda, bu joylarning odamlar tomonidan mavsumiy yoki doimiy istiqomat qilinganligidan guvohlik beruvchi maishiy ahamiyatga molik buyumlarning mavjudligidadir.

Tom ma'nodagi ustaxonalar - faqat tosh qurollar ishlab chiqarish bilan bog'liq buyumlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu joylarda odamning uzoq vaqt yashaganligini ko'rsatuvchi belgilar uchramaydi. Bunday ustaxonalar odatda, qurollar yasash uchun yaroqli bo'lgan ma'lum tosh jinslari konlari yaqinida joylashadi. Bu ustaxonalar odamlarning ishlab chiqarish faoliyatini xarakteriga ko'ra ikkita turga ajraladi:

Birinchi tur tom ma'nodagi ustaxonalar – toshlarga birlamchi ishlov beriladigan va qo'pol tanovorlar chaqmoqlab olinadigan joylar hisoblanadi. Bu yerlarda paleolit va neolit davrlarida xomashyoni qo'lga kiritish oddiy ochiq usul bilan amalga oshirilgan. Neolit davridan boshlab esa, xomashyo o'ralar, quduqlar va shaxtalar qazish usuli bilan qo'lga kiritila boshlangan.

Ikkinchi tur tom ma'nodagi ustaxonalarda birinchi turdagilardan farqli o'laroq, nafaqat toshlarga birlamchi ishlov berilgan, balki ixtisoslashgan qurollar tiplari ishlab chiqarilgan.

Mualliflarning ta'kidlashicha, bunday "ixtisoslashuv" neolit davri uchun xarakterlidir. Paleolit davrida esa bunday ustaxonalar hali mavjud bo'lmagan. Bu holat paleolit davri ustaxonalarining yaxshi o'rganilmaganligi uchun emas, balki paleolit davrida ijtimoiy mehnat taqsimoti darajasi hali endi kurtaklana boshlaganligi bilan izohlanadi ⁴.

Shunday qilib, Borsa-Kelmes botig'i ustaxonalarining ochib o'rganilganiga qariyb yarim asrga yaqin vaqt o'tdi va bu davrda tosh industriyalarini tadqiq qilish usullari o'zgardi, takomillashdi. Hozirda ushbu ustaxonalarda zamonaviy tadqiqot usullari yordamida o'rganish va ularning madaniy-davriy talqinlari borasida mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar o'rtasidagi turli fikrliliklarga barham berish fursati yetdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq

⁴ Касымов М.Р., Крижевская Л.Я. О классификации кремнеобрабатывающих мастерских //СА, №1. М. 1969. С. 267.

davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O’zbekistonda ilk sivilizatsiyalar: moddiy va ma’naviy madaniyat” mavzusidagi ilmiy yo’nalishi doyrasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asrning 80-yillarida ochib o’rganilgan Borsa-Kelmes botig’i toshga ishlov berish ustaxonalari (Esen-2, Qoraquduq) arxeologik materiallarini zamonaviy tipologik, texnologik va morfologik usullar yordamida madaniy-davriy va funktsional xususiyatlarini hamda O’rta Osiyo tosh davri toshga ishlov berish ustaxonalari tizimida tutgan o’rnini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

Esen-2 ustaxonasi tosh ashyolarini zamonaviy texnologik hamda tipologik usullar yordamida tadqiq qilish orqali yodgorlik tosh industriyasining haqqoniy madaniy-davriy xususiyatlarini va funktsional ahamiyatini aniqlash;

Qoraquduq ustaxonasini arxeologik materiallarini saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko’ra xronologik komplekslarga ajratish;

zamonaviy morfologik va texnologik usullar yordamida Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasida toshga ishlov berish strategiyalarini aniqlash;

Borsa-Kelmes botig’i qadimgi aholisining madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini hamda tadqiq qilingan yodgorliklarning O’rta Osiyo qadimgi tosh davri ustaxonalari tizimidagi o’rnini aniqlash.

Tadqiqotning ob’ektini Borsa-Kelmes botig’idan 1977-1978 yillarda E.B. Bijanov tomonidan topib o’rganilgan paleolit davriga oid Esen-2 va Qoraquduq ustaxonalari, shuningdek ularning madaniy-davriy xususiyatlari va O’zbekistonning tosh davri ustaxonalari tizimida tutgan o’rnini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Esen-2 va Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonalaridan XX asrning 80-yillarida yig’ib olingan moddiy madaniyat namunalari – tosh bifaslar, kliverlar, o’zaklar, plastinalar, tosh qurollar, toshga ishlov berish texnikasi, xom ashyosi, morfologiyasi va ularga ishlov berish texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda «Mishel Breziyonning texnik-tipologik», J. Peligrinning «Toshlarni chaqmoqlashning texnologik usullari» hamda V.T. Petrin va A.P. Derevyankolarning Sharqiy, Janubiy-Sharqiy va Markaziy (Qozog’iston) Osiyo paleolitini o’rganishdagi «Mexanik eroziya yoki fizik ta’sirlar» kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Esen-2 topilmajoyi tosh industriyasi so’nggi paleolit davrining boshlariga oid O’rta Osiyoda o’xshashi yo’q bifaslar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxona ekanligi va bu ixtisoslashuv neolit davridagidek ayirboshlash uchun emas, balki ishlab chiqaruvchi jamoaning o’z ehtiyojlari bilan “cheklangan” xarakterda ekanligi aniqlangan;

Qoraquduq ustaxonasini arxeologik materiallari saqlanish darajasi (deflyatsiya darajasi) va ishlanish texnikasiga ko’ra bir-biridan keskin farq qiladigan uchta: ilk, o’rta va so’nggi paleolit davrlariga oid xronologik komplekslardan iboratligi isbotlangan;

zamonaviy morfologik va texnologik usullar Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasida qadimgi ajdodlar tomonidan tashlab ketilgan tosh buyumlarni bir necha marotaba qayta ishlov berilganligi, natijada ikki yoki uch xilda patinizatsiyalashgan artefaktlar seriyalari paydo bo'lganligi va bu holat paleolitshunoslikda noyob hodisa "qoraquduq fenomeni" (*double patine, triple patine*) sifatida dalillangan;

Qoraquduq-1 ustaxonasi madaniy-davriy jihatdan ilk paleolit davrining oxirlarida yashagan gominidlar (*homo erectus?*), Qoraquduq-2 esa o'rta paleolitning ashel an'anali mustye madaniyati vakillari (*neandertallar?*) va Qoraquduq-3 so'nggi paleolit davri odamlari (*ilk homo sapiens sapiens?*) tomonidan o'zlashtirilgani, Esen-2 ustaxonasi asosan bifaslar va parallel-levallua texnologiyalari asosida yo'nilg'ilar ishlab chiqarish joyi bo'lganligi hamda O'rta Osiyo hududida analogiyasi yo'qligi, Qoraquduq ustaxonasining ikkinchi kompleksi esa Turkmaniston hududidagi Yangadja-Qoratengir topilmajoyi materiallari bilan yaqin o'xshashliklarga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilmiy ishda Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasi ilk marotaba uchta madaniy-davriy komplekslarga ajratilgan (*ilk, o'rta va so'nggi paleolit komplekslari*) hamda Qoraquduq-2 kompleksining ashel madaniyati texnologik an'alariga ega muste madaniyatiga xosligi va ushbu industriyaning Esen-2 yodgorligidagi ilk so'nggi paleolit kompleksiga avtoxton o'sib o'tganligi aniqlangan va bunda zamonaviy texnik-tipologik va morfologik usullardan keng foydalanilgan;

Borsa-Kelmes botigining paleolit davriga oid Qoraquduq-2 va Esen-2 yodgorliklarining bifas tipidagi tosh qurollar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxonalar ekanligi aniqlangan va O'rta Osiyoning tosh davri toshga ishlov berish ustaxonalari tarixida ixtisoslashuvning paydo bo'lishini neolitdan o'rta paleolit davrigacha qadimiylashtirgan va bu borada bir qator amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

Qoraquduq-1 yodgorligining aniqlanishi va materiallarining ilk paleolit davri bilan sanalanishi O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy hududlarining qadimgi odamlar tomonidan o'zlashtirilishini qadimiylashtirgan va yurtimizda qadimgi tosh davrining ilk bosqichlariga oid yana bir - Orol-Kaspiybo'yi madaniyatining hukm surganligi isbotlangan va ilmiy muomalaga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan ilmiy yondashuvlar va usullar asosida birlamchi moddiy madaniyat manbalaridan, keng qamrovli adabiyotlardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston tarixi, etnologiya, arxeologiya fanlarining metodologik yondashuvlarida, tipologiya, texnologiya, morfologiya va boshqa tosh davri madaniyatlarini o'rganuvchi fan sohalarida nazariy bilimlarni yanada boyitishda foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, umumiy xulosa va tavsiyalaridan O'zbekiston tarixi, arxeologiyasi va ibtidoiy jamiyat tarixini yoritishda, tosh davri kolleksiyalarini tadqiq qilishda, tasniflashda, davrlashtirishda va madaniy xususiyatlarini aniqlashda tor doiradagi mutaxassislar uchun qo'llanma vazifasini o'tashi mumkinligidadir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Borsa-Kelmes botig'i paleoliti zamonaviy tadqiqotlarda (Esen-2 va Qoraquduq 1-3 toshga ishlov berish ustaxonalari materiallari asosida)” mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

Qoraquduq ustaxonasini arxeologik materiallari saqlanish darajasi (deflyatsiya darajasi) va ishlanish texnikasiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladigan uchta: ilk, o'rta va so'nggi paleolit davrlariga oid xronologik komplekslari hamda Esen-2 topilmajoyi tosh industriyasi so'nggi paleolit davrining boshlariga oid O'rta Osiyoda o'xshashi yo'q bifaslar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxona ekanligi va bu ixtisoslashuv neolit davridagidek ayirboshlash uchun emas, balki ishlab chiqaruvchi jamoaning o'z ehtiyojlari bilan “cheklangan” ustaxona ekanligidan Qoraqalpog'istonning eng qadimgi tarixi bo'yicha ko'rgazmalar qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy meros boshqarmasining 2023 yil, 31 oktyabrdagi №01-03/04-442-sonli dalolatnomasi). Natijada muzey eksponatlari orasiga joylashtirilgan ushbu buyumlar muzeyga tashrif buyuruvchilarda Ustyurt hududida yashagan ajdodlarimizning hayot tarzi, toshga ishlov berish texnologiyalari, xo'jaligi va madaniy hayoti haqida to'laqonli tasavvurlar hosil qilishlariga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy morfologik va texnologik usullar Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasida qadimda ajdodlar tomonidan tashlab ketilgan tosh buyumlarni bir necha marotaba qayta ishlov berilganligi, natijada ikki yoki uch xilda patinizatsiyalashgan artefaktlar seriyalari paydo bo'lgan va bu xolat paleolitshunoslikda noyob hodisa “qoraquduq fenomeni” (*double patine, triple patine*) sifatida isbotlanganligi hamda Qoraquduq-1 ustaxonasi madaniy-davriy jihatdan ilk paleolit davrining oxirlarida yashagan gominidlar (*homo erectus?*), Qoraquduq-2 esa o'rta paleolitning ashel an'anali mustye madaniyati vakillari (*neandertallar?*) va Qoraquduq-3 so'nggi paleolit davri odamlari (*ilk homo sapiens sapiens?*) tomonidan o'zlashtirilgani, Esen-2 ustaxonasi asosan bifaslar va parallellevallua texnologiyalari asosida yo'nilg'ilar ishlab chiqarish joyi bo'lganligi hamda O'rta Osiyo hududida analogiyasi yo'qligi, Qoraquduq ustaxonasining ikkinchi kompleksi esa Turkmaniston hududidagi Yangadja-Qoratengir topilmajoyi materiallari bilan yaqin o'xshashliklarga ega ekanligi haqidagi xulosalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining “Tariyxtan derekler”, “Assalamu-aleykum, Qaraqalpaqstan!” kabi dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2023 yil 15 martdagi № 05-22/141 raqamli ma'lumotnomasi). Ko'rsatuvlar teletomashabinlarga Orolbo'yi tosh davri odamlarining moddiy va madaniy hayoti to'g'risida yangi ma'lumotlar bilan tanishishlariga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 11 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan: 8 ta xalqaro konferentsiya va 3-ta Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta, xorijiy jurnalda 1 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning tadqiqot qismi 120 betni tashkil qiladi. Dissertatsiyaga 80 bet (250 ta) foto va chizmalardan iborat illyustrativ albom ilova qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Borsa-Kelmes botig'i paleolit davri ustaxonalarining fizik-geografik sharoitlari va o'rganilish tarixi”** deb nomlangan birinchi bobi ikkita paragrafdan iborat. Birinchi paragraf **“Borsa-Kelmes botig'i paleolit davri toshga ishlov berish ustaxonalarining fizik-geografik sharoitlari”** deb nomlanib, unda Borsa-Kelmes botig'ining paleoekologiyasi, geologik tarixi va fizik-geografik sharoitlariga bag'ishlangan. O'rta Osiyo va Qozog'istonning g'arbiy rayonlari pleystotsen davri tabiati tarixi Kaspiy dengizi tarixi bilan uzviy bog'liq. Dengiz transgressiyalari va regressiyalarining hamda ularga mos ravishda yotqiziqqlarning almashinuvi ushbu hududda so'nggi kaynazoy davri geologik davrlashtirilishining asosini tashkil qiladi.

Kaspiy havzasida 4 ta transgressiya davri shuncha regressiya davrlari bilan almashingan. Ulardan eng qadimgisi Oqchagil bundan 3,3-1,8 mln yillarni qamrab oladi ⁵.

Kaspiyning suvlari eopleystotsen davriga oid Apsheron transgressiyasi bosqichida Oqchagildagidan 1,5 baravar kam hududlarni egallagan. Quyi pleystotsen davriga to'g'ri keladigan Baku transgressiyasi apsheron transgressiyasidan kamroq hududlarni egallagan, xazar transgressiyasi esa — baku transgressiyasidan ham kamroq maydonni egallagan. Faqatgina ilk xvalin

⁵ Леонтьев, О. К. Геоморфология берегов и дна Каспийского моря / О. К. Леонтьев, Е. Г. Маев, Г. И. Рычагов. М.: МГУ, 1977. 210 с. Варущенко А.Н., Клиге Р.К. Изменения режима Каспийского моря и бессточных водоемов в палеовремени. М: Наука, 1987. 239 с.

transgressiyasi (yuqori pleystotsen davri) bu tendentsiyani buzib, Kaspiy suvlari egallagan maydonlar apsheron transgressiyasi davridagiga etadi⁶.

Yuqori apsheron davri esa Xaramilo magnitlashuv bosqichiga mos keladi (0.9-1.0 mln yillar) va bu davr 700 ming yillar muqaddam tugagan hamda bu davrda Turkan regressiv fazasi boshlangan. Turkan regressiv fazasining o'rtalarida Bryunes-Matuyama davrining chegarasi o'tadi va shunday qilib, bu davr eopleystotsendan pleystotsen davriga o'tish sodir bo'ladi⁷. Baku bosqichlarining trek usuli bo'yicha sanalangan yoshi 600 ming yillar bilan belgilangan kulli yotqiziqlar bog'lanadi⁸. Xazar davri uran-ion va toriy-uran sanalariga ko'ra 300 ming yilliklardan avvalroq boshlangan⁹. Bu davrni aftidan, o'rta yoki so'nggi pleystotsenning boshlari bilan taqqoslash mumkin.

Termolyuministsent usuli ma'lumotlariga ko'ra ilk xvalin davri 70-40 ming yilliklarni qamrab oladi. Ammo radiouglerod va toriy-uran usullari orqali sanalash natijalari mutlaqo boshqachadir (11-24 ming yillar oralig'ida)¹⁰.

90-yillarning boshlariga kelib, Orol-Kaspiy cho'l zonalarida paleolit davri topilmalari to'rtta rayonda kontsentratsiyalashgan bo'lgan: (1) Krasnovodsk yarim orolida, (2) Uzboyorti rayonida, (3) Ustyurtda va (4) Mangishloqda.

Ustyurt platosi Kaspiy va Orol dengizi oralig'ida joylashgan keng hududlarni tashkil qiladi. Geografik jihatdan Ustyurt shimoldan janubga qarab, 56-meridian bo'ylab qariyb 600 km ga cho'zilgan. Ustyurt okrugi O'zbekistonning eng shimoliy-g'arbiy qismida joylashib, shimolda va g'arbda Qozog'iston bilan, janubda Turkmaniston bilan, sharqda esa Quyi Amudaryo okrugi va Orol dengizn bilan chegaralanadi¹¹.

Ustyurt arid dedunatsion plato xisoblanib, mutlok balandligi 100—200 m atrofida bo'lib, atrofi chinklar bilan o'ralgan. Chinklar atrofga ko'plab jarliklar bilan shaxobchalangan, Sharqiy chinklar Orol dengizi qirg'oqlaridai 190 m baland¹².

⁶ Шадрухин А.В., Токарский О.Г. 1985. К вопросу о колебаниях уровня Каспия в плиоцене и плейстоцене // Вопросы геологии и геофизики Прикаспия. Саратов. С. 132.

⁷ Ушко К.А. Стратиграфия и корреляция верхнеплиоценовых и четвертичных отложений Каспийской области // XI Конгресс ИНКВА. Москва, 1982. Тезисы докладов. Т. I-III. М. Трубихин В.М. 1987. Палеомагнитный метод и датирование региональных геологических событий Понто-Каспия // Новые данные по геохронологии четвертичного периода. М.: Наука. 1987. С. 150-157.

⁸ Ганзей С.С. Позднекайнозойские отложения Понто-Каспия и трековый возраст пепловых прослоев // Метод треков в геологии и географии. Владивосток: ДВНЦ АН СССР, 1987. С. 34-35.

⁹ Каплин П.А., Леонтьев О.К., Рычагов Г.И., Парунин О.Б., Свиточ А.А., Шлюков А.И. Хронология и палеогеография плейстоцена Понто-Каспия (по данным абсолютного датирования) // Палеогеография и отложения плейстоцена южных морей. М.: Изд-во Наука. 1977. Арсланов Х.А., Локшин Н.В., Мамедов А.В., Алескеров Б.Д., Герасимова С.А., Тертычный Н.И., Тертычная Т.В., Чернов С.Б. О возрасте хазарских, хвалынских и новокаспийских отложений Каспийского моря (по данным радиоуглеродного и ураново-иониевого методов) // Москва: БКИЧП. 1988. N.57. С. 32-34.

¹⁰ Варущенко С.И., Варущенко А.Н., Клиге Р.К. 1987. Изменения режима Каспийского моря и бессточных водоемов в палеовремени. М: Наука. 1987. С. 67; Арсланов Х.А., Локшин Н.В., Мамедов А.В., Алескеров Б.Д., Герасимова С.А., Тертычный Н.И., Тертычная Т.В., Чернов С.Б. 1988. О возрасте хазарских, хвалынских и новокаспийских отложений Каспийского моря (по данным радиоуглеродного и ураново-иониевого методов) // Москва: БКИЧП. N.57. С. 36.

¹¹ Баратов П., Маматкулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиёнинг табиий географияси. Тошкент, "Ўқитувчи". 2002. Б. 440.

¹² Usha joyda.Б. 440.

Ustyurt platosi geologik tuzilishi jihatidan epipaleozoy plitasining bir qismi xisoblanib, negizi paleozoy yotqiziqlaridan iborat, ustini kalın 3—4,5 km mezozoy va kaynozoy davrining cho'kindi jinslari qoplab olgan. Bu jinslar asosan sarmat va neogon ohaktoshlari, mergellari, gillaridan iborat bo'lib, oralarida tuz qatlamlari ham uchraydi. Plato mezozoy erasida sodir bo'lgan kimmeriy burmalanishida vujudga kelgan deb faraz qilinadi. Atrofidagi chinklar esa tektonik jarayonlar (uzulmalar), Orolning abrazion faoliyati va qadimiy daryo eroziyasi natijasida hosil bo'lgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi **“Borsa-Kelmes botig'i paleolit davri ustaxonalarining o'rganilish tarixi”** deb nomlanib, unda Ustyurt tekisligi Borsa-Kelmes botig'idagi Esen-2 va Qoraquduq ustaxonalarini o'rganish tarixiga to'xtalib o'tilgan. Esen-2 topilmajoyi Ustyurtdagi Borsa-Kelmes botig'ining janubiy chekkasidagi Esen tepaligi ustida joylashgan ¹³ va u E.B. Bijanov hamda A.V. Vinogradovlar tomonidan 1977 yilda ochilgan ¹⁴. Yodgorlikning maydoni 90x40 kv. m va bu erda kuchli kremniylashgan oxaktoshning parchalangan plastlari konlari uchraydi. Tabiiy siniqlar sochilib yotgan toshlar orasida 200 ta buyumdan iborat kolleksiya yig'ib olingan ¹⁵.

Esen-2 kolleksiyasida haqiqiy nukleuslar yo'q¹⁶. Kolleksiyaning taxminan yarmini yo'nilg'ilar va ularning siniqlari tashkil qiladi. O'nbeshtacha yo'nilg'i plastinasimon proporsiyaga ega. Yo'nilg'ilarning birontasi ham retushlanmagan ¹⁷.

Esen-2 industriyasini tushunish uchun muhim tosh buyumlar guruxi bifaslar hisoblanadi. Ular kolleksiyaning qariyb 3/1 qismini tashkil qiladi ¹⁸.

¹³ Бижанов Е. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестник КФАН УзбССР. N.3. Нукус. 1979. С. 68-72. Виноградов А.В. 1981. Древние охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М. “Наука”. С. 54-56.

¹⁴ Виноградов А.В., Бижанов Е.Б. Первые палеолитические находки с юго-восточного Устюрта // АО 1977 г. М. 1978. С. 522.

¹⁵ Мадреймов Б.Ж. 2021. Қорақалпоғистон Республикаси палеолит даври манзилгоҳлари ўрганиш тарихи // Тамаддун нури. №2. Қорақалпоғистон. Беруний. - С. 63-65; Madreymov B.J. 2021. History of the study of Paleolithic monuments of Karakalpakstan // Science and Education in Karakalpakstan. №3 (18). Nukus. -P. 160-162; Мадреймов Б.Ж. История исследования палеолита Устюрта // Верхний палеолит Европы: время культурных новаций Тезисы международной научной конференции, посвященной 70-летию А. А. Сеницына. (6–8 декабря 2021 г., Санкт-Петербург) / Отв. ред. С. А. Васильев; ИИМК РАН, ГАМЗ «Костенки». – СПб.: ИИМК РАН, 2021. С. 132-136; Мадреймов Б.Ж. Изучение Устюртского палеолита Южного Приаралья // Ахинжановские чтения–2022: материалы международной научной конференции студентов и молодых ученых (г. Алматы, 20–22 апреля 2022 г.). Алматы: Институт археологии им. А.Х. Маргулана, 2022. С. 91-93.

¹⁶ Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М. “Наука” 1981. С. 55, рис. 14, 11, 10.

¹⁷ Бижанов Е. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестник КФАН УзбССР. N.3, Нукус. 1979. рис. 3, 5.

¹⁸ Мадреймов Б.Ж. 2022. Есен-2 Ўзбекистон палеолитининг энг қадимги ихтисослашган устахонаси // Вестник КГУ им. Бердаха. № 1 (55). Нукус. - С. 185-187; Madreymov B.J., Elmuratov V.A. 2022. Esen-2 - the oldest specialized paleolithic workshop in Uzbekistan // Science and Education in Karakalpakstan. №3/1. Nukus.- P. 151-156; Мадреймов Б.Ж. Есен-2 – древнейшая специализированная мастерская палеолита Северного Узбекистана // Актуальная археология 6 Материалы международной научной конференции молодых ученых. Санкт-Петербург, 4–7 апреля 2022 г. – СПб.: ИИМК РАН, 2022. С. 59-61; Мадреймов Б.Ж. Изучение камнеобрабатывающей мастерской палеолита Есен-2. (Вопрос о датировке Есен-2). Қарақалпақстан регионинда жоқары билим хэм илим пән раўажланыўында Қарақалпақ мәмлекетлик университетиниң орны: Кеше, Бугин, Ерген (Қарақалпақ мәмлекетлик университетиниң 45-жыллығына бағышланады) темасында илимий-эмелий конференция. 28-29 май. Нукус. 2022.- С. 351-353.

Esen-2 ni sanalash masalasi turlicha amalga oshirilgan. Dastavval u so'nggi paleolitga oid deb topilgan va buning uchun Markaziy Qozog'istondagi chop etilmagan materiallar bilan analogiyalar xizmat qilgan¹⁹. So'ngra E.B. Bijanov pozitsiyasini qayta ko'rib chiqib, kompleksni so'nggi ashel yoki ilk muste davrlari bilan sanalagan²⁰.

Borsa-Kelmes botig'ining shimoliy-g'arbiy chekkasida joylashgan Qoraquduqda aftidan, o'rta paleolit davridan qadimiy bo'lmagan turli davrlarga oid materiallar mujassamlashgan²¹.

Shunday qilib, Ustyurtning Esen-2 va Qoraquduq ustaxonalari materiallari turli mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilindi. Shulardan kelib chiqib, tilga olingan yodgorliklarni o'rganish bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan quyidagi muammolar ishlab chiqilishi mumkin:

1. Esen-2 yodgorligining funktsional ahamiyati masalasiga oydinlik kiritilishi lozim. Aksariyat tadqiqotchilar topilmajoyning ustaxonaligini va hatto, bifaslar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ustaxonaligini ham tan olishgan. Biroq, A.V. Vinogradov tadqiqotlarida uni makon-ustaxonasi nomi bilan tilga olinadi.

2. Esen-2 topilmajoyida ishlab chiqarilgan bifaslarning qo'l cho'qmorlari yoki bifas-tig'lar ekanligi masalasiga oydinlik kiritilishi lozim.

3. Esen-2 ustaxonasida mavjud bo'lgan texnik an'analar zamonaviy texnik-tipologik va texnologik usullar yordamida tadqiq qilinishi lozim. Negaki, yuqorida ta'kidlaganmizdek, A.V. Vinogradovning ilmiy ishlarida bu erda uchta: parallel, levallua chaqmoqlash hamda bifaslar ishlab chiqarish texnik an'alarining hukm surganligi qayd qilingan.

4. Qoraquduq ustaxonasi kolleksiyasi madaniy-davriy komplekslarga ajratilishi va materiallarning haqqoniy analogiyalari, xronologiyalari hamda madaniy-davriy xususiyatlari ishlab chiqilishi lozim.

5. Esen-2 va Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonalarining O'rta Osiyo paleolitida tutgan o'rni aniqlanishi lozim.

II bob **“Esen - 2 ustaxonasi tosh buyumlarining texnik-tipologik tasnifi (1977-1979 yillar materiallari asosida)”** deb nomlanadi va ikkita paragrafdan tashkil topgan. Birinchi paragrafda **“Esen-2 ustaxonasida toshlarga birlamchi ishlov berish”** ga doir tadqiqot natijalari bayon qilingan. Esen-2 toshga ishlov berish ustaxonasidan 1977-1979 yillarda yig'ib olingan tosh buyumlar ishlanish texnikasi va saqlanish darajasiga ko'ra so'nggi paleolit davrini xarakterlaydi. Yodgorlik asosan, bifaslar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxonadir. Esen-2 da nukleuslar uchramaydi, degan fikrlar xatodir. Yo'nilg'ilar orasida mavjud levallua plastinalar yodgorlikda parallel-levallua texnikasining hukm surganligi haqida gapirish imkonini beradi.

¹⁹ Виноградов А.В., Бижанов Е.Б. 1978. Первые палеолитические находки с юго-восточного Устюрта // АО 1977 г. М: С.56

²⁰ Бижанов Е. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестник КФАН УзбССР. N.3. Нукус. 1979. С. 71; Бижанов Е. Палеолит Устюрта // Вестник КФАН УзбССР. N.1. Нукус: 1988. С. 68.

²¹ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Ст-Петербург, “Европейский дом”. 1996. С. 78.

Nukleuslari (4 ta) bir zarb maydonli (3 ta) va ortogonal (1 ta) o'zaklar bo'lib, ularning aksariyati tekislangan zarb maydonlarga ega. Nukleuslardan uzunasiga subparallel ravishda uchirindilar chaqmoqlab olingan.

Uchirindilar-34 ta. Esen-2 toshga ishlov berish ustaxonasida kam sonli uchirindilar ham aniqlandi. To'planning uchirindilari ayrim bifaslarni ishlov berishdan, tabiiy g'o'lalarni tashqi g'adir-budir qavatini olib tashlashdan hamda tanovorlarning qirralarini tekislashdan hosil bo'lgan yo'nilg'ilardan iborat. Kompleksda toshlarni chaqmoqlash xuddi bifaslarda bo'lgani kabi og'ir va engil tosh hamda organik shox ushatg'ichlar yordamida amalga oshirilgan.

Shunday qilib, Esen-2 ustaxonasining industriyasida kam sonli nukleuslar uchraydi. Ular bir yuzadan va qiziqarlisi tanovorlarning ensiz ko'ndalang tomonlaridan subparallel tarzda chaqmoqlanganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek ushbu nukleuslardan o'rta va kichik hajmli, kalta proportsiyali uchirindilar sindirib olingan.

To'plam uchirindilarining bir qismi nukleuslariga mos ravishda kalta proportsiyali va kremniylashgan oxaktoshlardan ishlangan (34 ta). Esen-2 ustaxonasida ayrim plastinalar ham uchraydi. Yodgorlikning yo'nilg'ilari orasida kam sonli dorsallari parallel xarakterdagi qovurg'ali (реберчатый) plastinalar ham mavjud.

Ushbu kolleksiyada uchirindidan bifasial yo'nishlar va kichik retushlar yordamida ishlov berilgan ikki tomonlama ko'nlang ishlangan qirg'ich ham aniqlandi.

Shunday qilib, Esen toshga ishlov berish ustaxonasi birlamchi ishlov berilgan industriyasi texnologik jihatdan so'nggi paleolit davrini xarakterlaydi. Texnik-tipologik xarakteristikasiga ko'ra ushbu kompleks quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Nukleuslari kolleksiyaning yo'nilg'ilariga qisman mos keladi. Bu aftidan, tashrif buyuruvchilarning yo'nilg'ilardan tashqari, nukleuslarni ham makonga olib ketishganligi bilan izohlanadi.

2. Yo'nilg'ilari orasida subparallel ravishda bir yoki ikki zarb maydondan chaqmoqlangan levallua tipidagilar ham uchraydi.

3. Yo'nilg'ilar zarb maydonchalari asosan fasetkalashtirilgan, ammo ularni tekis zarb maydonlardan chaqmoqlash amaliyoti hukm surgan.

4. Texnologik jihatdan to'planning yo'nilg'ilari kompleksdagi bifaslar chaqmoqlash texnikasiga mos keladi.

5. Madaniy-davriy jihatdan ushbu kompleks so'nggi paleolitning boshlariga xos bo'lgan parallel-levallua madaniyatiga kiritilishi mumkin.

II bobning ikkinchi paragrafi "**Esen-2 ustaxonasi bifaslari**" ga bag'ishlangan. Yodgorlikdan 20 ta bifas va 2 ta kliverlar aniqlandi. Ular orasida turli darajada ishlov berilgan bifaslar va ularning fragmentlari uchraydi. Bifaslar orasida butun (6 ta), nukleussimon (2 ta), proksimal (4 ta), o'ng lateral (3 ta), medial (1 ta), distal (4 ta) fragmentlari aniqlandi. Shuningdek 2 ta kliverlar ham ajratildi.

Ta'kidlash joizki, A.V. Vinogradov ta'kidlaganidek, bunday yirik hajmli bifaslar tig' sifatida ishlatishga yaramaydi. Paleolit davrining aksariyat bifaslari Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo ilk paleoliti qo'l cho'qmorlaridan farqli o'laroq

qo'ndoqsiz shaklda ishlangan. Bundan tashqari, mutaxassislarining ta'kidlashicha, bunday tipdagi bifaslarning ko'pchiligi hayvon terilarini shilish va go'shtini maydalashda pichoqlar sifatida ishlatilgan. Qirralarning o'tkirligi ularni qo'llashda halaqit bermagan va bunda qirralaridan biriga hayvon terisidan qoplama ishlatilgan. Bifaslarning o'tkir va nozik uchlari qayishqoq, qattiq hayvon terilarini teshishda qo'l kelgan. Shuningdek bunday katta hajmli bifaslarni tig' sifatida foydalanish uchun ularni yog'och cho'p emas, balki yirik xodalarning uchlariga mahkamlash lozim bo'ladi va bu mantiqan unchalik to'g'ri emas.

Shunday qilib, Esen-2 toshga ishlov berish ustaxonasi tosh industriyasi quyidagi texnik-tipologik va morfologik xarakteristikaga ega:

Esen-2 ustaxonasi tosh industriyasi bifaslar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxonadir. Ammo bu ishlab chiqarish ayirboshlash emas, balki ishlab chiqaruvchi jamoaning ehtiyojlari bilan cheklanganligi bilan xarakterlanadi.

Esen-2 toshga ishlov berish ustaxonasi materiallari texnik ko'rsatgichlariga ko'ra so'nggi paleolit davrining boshlariga oidligi aniqlandi. Yodgorlik asosan bifaslar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxonadir. To'plamda bifaslar bilan birga ayrim kliverlarning klassik variantlarining topilishi, paleolit davri bifasial industriyalarining ko'pgina madaniyatlariga xos xususiyat hisoblanadi. Bu bifaslarni tayyorlashda og'ir va engil tosh ushatg'ichlar hamda organik ushatg'ichlar o'z o'rnida foydalanilgan. Bifaslarning yuzalarida saqlanib qolgan yo'nilg'i negativlari shundan dalolat beradi. Tosh ushatg'ichlar yordamida amalga oshirilgan yo'nilg'i negativlarida kontrzarb tepalik izlari saqlanib qolgan bo'lsa, organik ushatg'ich yordamida sindirilgan yo'nilg'i negativlarida bunday izlar uchramaydi va ular tekis, yupqa hamda botiq ko'rinishga ega bo'ladi. Boshlang'ich xomashyoning ichki strukturasi uchraydigan defektlar bifaslar ishlab chiqarishga katta ta'sir ko'rsatgan va esenlik ustalar ushbu noqulayliklarni olib tashlash uchun uzunasiga amalga oshirilgan kesgich yo'nishlaridan ham foydalanishgan. Bifaslarning aksariyati to'liq ishlov berilmagan va bu yodgorlikning ustaxona ekanligi bilan bog'liq.

O'tgan asrning 70-80-yillarida hali texnologik bilimlar taraqqiyoti hali u darajada taraqqiy qilmagan edi. Natijada yodgorlikning tosh industriyasini madaniy-davriy talqini mutaxassislar o'rtasida turlicha interpretatsion qarashlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Yodgorlikni bevosita tadqiqotchisi E. Bijanov kompleksni so'nggi ashel va ilk muste davrlari bilan sanaladi. Albatta bu xato qarash edi. Negaki A.V. Vinogradov ta'kidlaganidek, Esen-2 industriyasi bilan Janubiy Qozog'istonning ilk paleolitga oid komplekslari (Bo'riqazg'an va Tanirqazg'an) o'rtasida o'xshashliklardan ko'ra tafovutlar ko'proq edi. O'z navbatida, A.V. Vinogradov Esen-2 bifaslarining o'ta yupqaligini va uning asheldan keyingi davrlarga oidligini to'g'ri payqay oldi. Ammo har ikkala mutaxassis ham bifaslarning ishlanish texnikasiga e'tibor bermadi va buning iloji ham yo'q edi. Negaki toshlarni chaqmoqlash usullarini evolyutsiyasiga bag'ishlangan davriy jadval 2004 yilda frantsuz tadqiqotchilari J. Peligrin hamda J.P. Tiksiyelar tomonidan ishlab chiqildi. Unga ko'ra, organik (kiyik shoxi) ushatg'ichlar yordamida chaqmoqlash texnikasi butun dunyoda so'nggi paleolit davrida paydo bo'lishi aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Esen-2 ustaxonasining tosh industriyasini so'nggi paleolit davri bilan sanalash mumkin.

Dissertatsiyaning **III bobi “Qoraquduq ustaxonasi tosh buyumlarining texnik-tipologik tasnifi”** deb nomlanib, to'rtta paragrafdan tashkil topgan. Birinchi paragraf **“Birinchi kompleks (86 ta tosh buyum)”** deb nomlangan. Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasi industriyasining 1-kompleksi tosh buyumlari avvalombor, saqlanish darajasiga ko'ra ajratildi. Ushbu kompleksning tosh buyumlari xuddi ustaxonada sochilib yotgan kuchli kremniylashgan oxaktoshlar kabi silliqdashgan va ba'zan tipologik jihatdan o'qilishi qiyin. To'plamda nukleuslarning (13 ta) bir ikki zarb maydonli va perpendikulyar hamda ortogonal turlari uchraydi.

Kolleksiyaning qurollari orasida qirg'ichlar (15 ta) asosiy o'rin tutadi. Ular retushlar va aksariyat xollarda kichik yo'nishlar yordamida shakllantirilgan. Qirralarining shakli bo'rtik, to'g'ri chiziqsimon va S-simondir. Kompleksda kam sonli tishsimon (5 ta) va kertik (6 ta) qurollar ham aniqlandi. Ular kichik yo'nishlar yordamida ishlov berilgan. Ankoshlar klekton tipida.

III bobning ikkinchi paragrafi **“Ikkinchi kompleks (703 ta)”** deb nomlanadi. Ushbu kompleksga tashqi tomoni oftobda kuygan (пустынный загар) tosh buyumlar kiritildi.

Nukleuslar-97 ta. To'planning nukleuslari ustaxonada mavjud bo'lgan xomashyo gabaritlaridan kelib chiqqan xolda bir-ikki zarb maydonli bo'lib, aksariyat hollarda ishlanishning boshlang'ich bosqichlarida tashlab yuborilgan. O'zaklar orasida bir zarb maydonlilari 59 ta.

Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasi uchta xronologik kompleksga ajralganligi sababli bu yerga ibtidoiy odamlar qadimgi tosh davrining turli bosqichlarida kamida uch marta tashrif buyurganlar. Natijada ajdodlar tomonidan tashlab ketilgan tosh buyumlarni, xususan, nukleuslarni qayta ishlov berganlar. Qizig'i shundaki, ilgari nukleus vazifasini o'tagan buyumlar ham qayta shakllantirilib, yana o'zaklar sifatida foydalanilgan. Oqibatda nukleuslarning ish yuzalarida ikki xil patinizatsiyaga ega yo'nilg'i negativlari vujudga kelgan.

Kolleksiyaning nukleuslari orasida qarama-qarshi zarb maydonli unifasial (12 ta) va ikki qarama-qarshi zarb maydonli bifasial ishlov berilganlari (6 ta) ham uchraydi. Ushbu nukleuslarning barchasi kichik hajmli, qalinligi 2-3 sm lik kremniylashgan oxaktosh plitkalardan ishlangan. Kam hollarda ularning zarb maydonlari tekislangan va orqa taraflariga qiyalashgan. Aksariyat xollarda chaqmoqlash xomashyoning deflyatsiyaga uchragan tekis yuzalardan amalga oshirilgan va asosan kichik hamda o'rta hajmli bir-ikkita uchirindilar chaqmoqlab olingan.

Ko'pincha nukleuslarning ish yuzalaridagi yo'nilg'i negativlari o'zakning pastki uchigacha etmasdan sinib qolgan va ish yuzadan perpendikulyar ravishda bir-ikki yo'nishlar amalga oshirilgan (8 ta).

To'plamdagi ortogonal o'zaklardan (6 ta) ayrimlari avvalgi xronologik bosqichda bir zarb maydonli nukleuslarning ish yuzalariga ortogonal ravishda chaqmoqlash amalga oshirilgan.

To'plamda ayrim ko'p zarb maydonli nukleuslar (3 ta) ham mavjud bo'lib, bu o'zaklarning periferiyasi bo'ylab xaotik tarzda kichik hajmli uchirindilar sindirib olingan. Ayrimlarining ish yuzalarida avvalgi bosqichdan qolgan yo'nilg'i negativlarini saqlab qolgan.

Qoraquduq ustaxonasi 2-kompleksi nukleuslari orasida ularning qurollarga aylantirilganlari ham uchraydi (3 ta). Ular tanovorlarning qirralarini kichik yo'nishlar yordamida qirg'ichlarga aylantirilgan qurollardir.

Qoraquduq ustaxonasi 2-kompleksida uchirindilar (447 ta) asosan birlamchi yoki yarim birlamchi xarakterga ega. Shuning uchun ushbu yo'nilg'ilarni dorsallarining xarakteri statistika qilinmadi. Ulardan 351 tasi o'rta hajmli va 96 tasi kichik hajmli uchirindilardir. O'rta hajmli uchirindilardan 238 tasi zarb maydonchalarini saqlab qolgan va 113 tasining zarb maydonchalari singan. Saqlanib qolgan zarb maydonchalar orasida asosiy o'rinni tekis xarakterdagilar egallaydi (170 ta). To'plamda shuningdek fasetkalashtirilgan (39 ta) hamda chiziqsimon (29 ta) xarakterdagi zarb maydonchali uchirindilar ham uchraydi. Kichik hajmli uchirindilarning zarb maydonchalari asosan chiziqsimon va tekis xarakterga ega. Kolleksiya yirik uchirindilarning uchramasligi, ularning yupqaligi hamda dorsallarining deflyatsion qobiq bilan qoplanganligi ustaxonada ishlatilgan xomashyoning sifati hamda gabaritlari bilan bevosita bog'liqdir.

Qoraquduq ikkinchi kompleksining tosh qurollari-98 ta. Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasi tosh qurollari orasida asosiy o'rinni qirg'ichlar (34 ta) egallaydi va ularning aksariyati bifasial kichik yo'nishlar yordamida ishlov berilgan.

Kolleksiya bifasial ishlov berilgan qurollar (18 ta) ham mavjud bo'lib, ularning qirg'ichlardan farqi plitkalarining har ikkala yuzalaridan yupqa yo'nishlar yordamida shakllantirilganligidadir (qirg'ichlar yarim tik yo'nishlar yordamida ishlov berilgan bo'lsa, bifasial qurollar tekis va botiq yo'nishlar yordamida shakllantirilgan).

To'plamda tishsimon-kertikli qurollar ham katta o'rin egallaydi (45 ta), ankoshlar, bifasial ishlov berilgan qurollar, yagona chopquvchi qurol va asosan bifaslardan tarkib topgan. Ankoshlar klekton tipli.

Qoraquduq industriyasining xarakterli xususiyatlaridan biri ikkinchi va uchinchi kompleks ustalari o'zidan avvalgi yoki qadimgi tosh buyumlarni terib olib, qaytadan ishlov berganlar. Bu holat dubl va tripl patinizatsiyalashgan tosh artefaktlarning paydo bo'lishiga olib kelgan.

III bobning uchinchi paragrafi **“Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasi 2-kompleksining bifaslari-59 ta”** ga bag'ishlangan.

Yirik qurollardan yodgorlikda 59 ta bifaslar va atigi 3 ta kliverlar aniqlandi. Kliverlardan ayrimlari klassik namunalariga yaqin. Bifaslar og'ir ushatg'ich yordamida ishlov berilgan va asimmetrik bodomsimonga yaqin shakllarga ega. Qirralari zigzagsimon va butun periferiyasi bo'ylab yo'nishlar va retushlar yordamida ishlov berilgan. Ularning eng yirigi 10,6x6x3,2 sm, qolganlari esa undan kichik hajmlarga ega. Bifaslarga asosan, qisman ishlov berilgan. Ushbu qurollar orasida butun (17 ta) hamda proksimal (12 ta), medial (7 ta), lateral (3 ta) va distal (20 ta) fragmentlari uchraydi.

III bobning to'rtinchi paragrafi **“Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasi tosh industriyasining 3-kompleksi-44 ta”** ga bag'ishlangan.

Ushbu kompleksga kom sonli bo'lsada saqlanish darajasi nisbatan yangi va koroziyaga kamroq uchragan yorqin buyumlar kiritildi.

To'planning nukleuslari bir-ikki zarb maydonli. Biroq ulardan chaqmoqlangan yo'nilg'ilarning aksariyati o'zak ish yuzasining boshlang'ich qismlarida sinib qolgan va xomashyoning deflyatsion yuzasini saqlab qolgan.

Qoraquduq topilmajoyi 3-kompleksi tosh qurollari orasida qirg'ichlar katta o'rin egallaydi. Ular asosan kremniylashgan oxaktosh plitkalarining uzun tomonlarida yarim tik yo'nishlar yordamida shakllantirilgan. Ish qirralarining shakli to'g'ri chiziqsimon va bo'rtib chiqqan. Bifasial ishlov berish qo'llanilmagan. Ushbu qirg'ichlarning xarakterli xususiyati ularning ish qirralarida birinchi va ikkinchi bosqichdan qolgan retushlar va kichik yo'nishlar izlarining saqlanib qolganligidadir.

